

# МАДАНИЯТ ВА САҢЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**BOBOMURODOV Bahrom Toshpo'latovich***O'zbekiton davlat konservatoriyasi huzuridagi  
B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutining**II-bosqich magistranti*<https://doi.org/10.5281/zenodo.13936208>

## **BAS GITARA IJROCHILIGIDAGI MAVJUD MAXSUS BELGILAR VA ULARGA TA'RIFLAR**

### **ANNOTATSIYA**

Bas gitara ijrochiligiga qiziqish bugungi kundagi yosh sozandalarni ko'proq o'ziga jalb etmoqda. Buni O'zDK huzuridagi B. Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutiga kirishga intilayotgan abituriyentlar sonidan ham bilsak bo'ladi.

Shunday bo'lsada, abituriyentlarda bas-gitara ijrochiligining boshlang'ich bilimlarini yaxshi o'zlashtirmaganligi bilini qolmoqda.

Ushbu cholg'uda ijrochilikning ilk mashg'ulotlarida nimalarga e'tibor berish lozim va qanday amaliy ko'rsatmalarni o'zlashtirish maqsadga muvofiq. Bu kabi savollarga quyidagi maqolada javob berishga harakat qilindi.

**Kalit so'zlar:** bas-gitara, ijrochilik, sozanda, talaba, metodika, applikatura, hammer, pull, slyd, jarangsiz notalar, bosh barmoq, zarb, lad.

## **ДОСТУПНЫЕ СПЕЦИАЛЬНЫЕ СИМВОЛЫ В ИГРЕ НА БАС-ГИТАРЕ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ К НИМ**

### **АННОТАЦИЯ**

Сегодня все больше молодых музыкантов интересуются игрой на бас-гитаре. Об этом свидетельствует количество абитуриентов, подавших заявления о поступлении в Институт национальной эстрады им. Б.Зокирова при УзДК.

Однако известно, что претендентам не хватает базовых знаний игры на бас-гитаре.

На что обратить внимание и какие практические указания освоить при первом обучении игре на этом инструменте. На такие вопросы мы постарались ответить в следующей статье.

**Ключевые слова:** бас-гитара, исполнитель, музыкант, ученик, методика, применение, аппликатура, пулл, слайд, приглушенные ноты, большой палец, перкуссия, лад.

## AVAILABLE SPECIAL CHARACTERS IN BASS GUITAR PLAYING AND DEFINITIONS FOR THEM

### ANNOTATION

Today, more and more young musicians are interested in playing the bass guitar. This is evidenced by the number of applicants who have applied for admission to the Institute of National Variety Art named after B. Zokirov at the State Conservatory of Uzbekistan.


However, it is known that applicants lack basic knowledge of playing the bass guitar.

What to pay attention to and what practical instructions to master when first learning to play this instrument. We tried to answer such questions in the following article.

**Key words:** bass guitar, performer, musician, student, student, application, application, pull, slide, muted notes, strike, percussion, skale.

Ushbu maqolada applikatora (lot. “applico” -“joylashuv”, “bosish” - barmoqlarning grifdagi joylashuvi ketma-ketligi) haqida alohida to‘xtalishni joiz deb topdik. Applikatoraning asosiy maqsadi -qo‘lning grif (cholg‘uning nota pardalari, ladlar joylashgan qismi) bo‘ylab sirpanib yoki yugurib yurishini oldini olish va ijrochilik texnikasini oshirishga yordam berishdir. Bunda qaysi ladda, qaysi torlarda qaysi notalar joylashganini mustahkam o‘rganib olish zarurdir.

Ushbu rasmda 4 torli - standart bas-gitara ladlarida qaysi notalar joylashgani tasvirlangan:



Applikaturani qulay bo‘lishi uchun, amerikalik mohir bas-gitara ijrochisi va pedagog Toni Oppenxaym, barmoqlarning grifdagi joylashuv holati va ijro etish uslublarini aniq belgilovchi harfiy ko‘rsatmalar ishlab chiqdi. Ushbu ko‘rsatmalar ko‘pchilik mashhur bas-gitara cholg‘uchilari tomonidan ma‘qullangan va jahon bas-gitara ijrochilik maktabida keng qo‘llanib kelinmoqda. Ular quyidagichadir:

**T** - bosh barmoq bilan torga zarb berish,

**H** -hammer,

**L** -pul,

**P** -yopiq (jarangsiz), zarbli ovoz.

**S** - slayd (sirpanish) [4, B.25].

“Hammer” (ing. “zarb”) va “pul” (ing. “chertish”) gitara cholg’ularida keng qo’llaniladigan ijrochilik uslublaridandir. Ayniqsa bu - bas-gitarada jo’rnovzlik partiyalarini ijro etish jarayonida o’ziga xos rang beradi. Ba’zi ijro ko’rinishlarida o’ng qo’l ishtirok etmaydi va tovush faqat chap qo’l ishtirokida amalga oshiriladi. Ushbu ijro uslublari “hammer” va “pul” deb ataladi.

Masalan:



“Hammer” ijrosi uchun barcha torlardagi turli notalar olinishi mumkin. Bunday ijro uchun albatta keyingi notaga liga belgisi qo’yiladi [2, B.45].

Bunda “T” belgisi qo’yilgan notalarni ko’rsatgich barmoq bilan zarbli ko’rinishda ijro etiladi, “H” belgisi qo’yilgan keyingi notalarni esa o’ng qo’l zarbsiz bosadi. So’ngra shu holatda ijro etilgan notaning jarangini eshitish lozim-bu “hammer” ijrosidir.

“Pul” esa hammerning aksincha ijrosi (quyidagi misolga qarang), ya’ni “L” belgisi qo’yilgan oldingi notani chertish va boshqa belgilar qo’yilgan notani jarangini eshitishdir. Unda jarangni beradigan nota ladi ustida ko’rsatgich barmoq oldindan qo’yilgan bo’lishi lozim.



Ijro uslublaridan yana biri “jarangsiz notalar” ijrosidir. Bunday notalar “x” ko’rinishida belgilanadi. Ushbu notalar chap qo’l bilan lادلarni aniq bosmaydi. Barmoq ko’rsatilgan notani ustiga qo’yiladi va o’ng qo’l bilan chertiladi [1, B.27].

Bunda nota balandligiga ega bo’lmagan “shovqinli” ovoz paydo bo’ladi. Bu ijro turi ritmik ko’rinishni yanada boyitish va musiqaga o’ziga xos rang berish uchun ishlatiladi.




Jarangsiz notalar asosan ochiq torlardagi notalarni belgilaydi.



“Slayd” (ing. “sirpanish”) -asosiy notaga zarb berib ko’rsatilgan notaga qadar glissando ijrosidir. Unda sekundadan to oktava intervali oralig’ida (kam holatlarda undan ortiq) joylashgan notalar bo’lishi mumkin. Ushbu ijro turi asosan bitta torda ijro etiladi.

Masalan:



**Ijrochilik malakasini o’zlashtirish uchun mashqlar.** Mashq jarayonlarida o’ng qo’l barmoqlarda qadoq va ikkala qo’l mushaklarida bir oz og’riqlar paydo bo’lishi mumkin. Mashqlarni e’tibor bilan, erkin hamda yengil ijro etish borasida ko’nikma hosil qilish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish mumkin.

Mashqlarni muntazam ravishda ijro etishdan asosiy maqsad -qo’llar texnikasini va nota o’qishni rivojlantirish bo’lsa, ikkinchi maqsad - tovush sifatini yaxshilashdir. Bosh barmog’ingiz bilan zarb berayotganingizda, hosil bo’lgan tovushni diqqat bilan tinglang. Unda quyidagilarga katta e’tibor bering:

- a) Tovushda musiqiy ijro mavjud;
- b) Zarbning sifati;
- d) Notada soflik;

Bu uchta xususiyat yaxshi tovush chiqarish uchun zarurdir. Tovushning aytib o‘tilgan barcha sifatlarga ega ekanligiga qanday ishonch hosil qilish kerakligini tushunib olish muhimdir [3, B.65].

Unda:


a) sifatli tovush hosil qilganingizga ishonch hosil qilishning yaxshi usuli bu - ochiq torni “yulib olish”dagi tovushni, ochiq torga bosh barmog‘ingiz bilan urish natijasida hosil bo‘lgan tovush jarangi bilan solishtirishdir. Albatta, tovush jarangida farq bo‘ladi. Bosh barmog‘ingiz tomonidan chiqarilgan tovush yorqinroq va zarbaliroq bo‘lishi mumkin, lekin u ham “bo‘liq tovush” sifatida jaranglamaydi.

Sifatli tovush chiqarish va uni nazorat qilish qiyin jarayondir. Unda sof nota tovushidan boshqa sadolar (masalan: fon) jaranglamasligini oldini olish muhimdir.

Shuningdek, ba’zida tovushlarni (laddagi notalarni) bir oz ko‘tarib ijro etish turi ham mavjud. Unda barmoqlar ladni bosgan holda yuqoriga (kamdan-kam hollarda pastga) bir oz torni ko‘taradi va aynan ushbu tovushda forshlag kabi ijro paydo bo‘ladi va nota ustiga mordent belgisi qo‘yiladi (♩) [5, B.75].

Bu ijroni tashkil etish uchun kuchli slux (tovushlarni ajrata olish qobiliyati) bo‘lishi lozim. Zero, sof ijro etilmagan forshlaglar “falsh” (notiniq) notalarni paydo etishi mumkin. Ko‘plab ijrochilarda ushbu ijro turini mashq qilish jarayonlarida, tirnoqlar ko‘chishi kuzatiladi va azob beradi. Bu esa mashqlar jarayonida ijroga noto‘g‘ri yondashuvdan kelib chiqadi. Shu sababli, bunday ijrolarni mashq qilish jarayonida o‘qituvchi bilan ishlash lozim. Zero, o‘z bilarmonlik bilan mashq qilish yaxshi oqibatlarga olib kelmasligi tayindir.

Qanday mashqlar bor? Quyidagi misollarda yuqorida aytib o‘tilgan maxsus belgilar qo‘yilgan bo‘lib, ularga amal qilgan xoldagi ijro qo‘llardagi zo‘riqishni va texnik ijroni yengillashtiradi. Bu kabi mmiollar B.Bobomurodovning 2024-yil chop etilgan “Estrada cholg‘ularida ijrochilik (bas gitaara)” o‘quv qo‘llanmasida chuqur tushuntishlar bilan berilgan.



1-mashq



2-mashq

va hokazo.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talaba oliy ta’lim dargohiga kelgunga qadar biz yuqorida sanab o‘tgan amaliy va nazariy ijrochilik yo‘llarini chuqur o‘rganib o‘rganib olsa, institut talabidagi dasturlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtiradi va qiyinchiliklarga uchramaydi.

**IQTIBOSLAR. ЧОСКИ. REFERENCES**

1. Troy Millard “John Patitucci”, New York, “Litha music and Iccutitap misic”, 1988.
2. Dr. Groove “Slap bass”. Berlin, “Verlag International”, 1988.
3. Damian Erskine “Right hand drive”, London, “NotneK Music”, 2010.
4. Tony Oppenheim “SLEP (bas-guitar)”. New-York. “Guitar college”, 2004.
5. Sh. A. Umarov. Dirijyorlik, darslik, T.: “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi” nashr., 2024 y.